

“Qushchilik” MFY hududida yangi transformator o'rnatildi

Bugungi kunda Taxiyyatosh tumani “Qushchilik” MFY hududida 516 ta oilada 1 ming 900 dan ziyod aholi istiqomat qilib kelmoqda.

Mahalla ahli elektr energiyasining tez-tezdan uchib qolishidan aziyat chekib, elektr energiyasini etkazib beruvchi TP-3 transformatorining eskirib avariya holatiga tushib qolganligi sabab eski transformator o'rniga yangisini qurib berishda hududning sektor rahbarlari va deputatlarga murojaat qildi.

Image not found or type unknown



Murojaat yuzasidan O'zLiDeP partiyasidan saylangan Taxiyyatosh tuman kengashi deputati B.Shapiev va 3 sektor rahbari, Taxiyyatosh tuman ichki ishlar bo'limi bo'lim boshlig'i J.Kamalovlar muammoni o'rganib chiqib, eski transformator o'rniga yangisini qurib berishda tashabbus ko'rsatdi.

Image not found or type unknown



Qolabersa qishning sovuq kunlarida bolalarning maktabga qatnaydigan yo'llari yoroqsiz holga kelib qolganligi bois hududdagi Michurin Ataniyazov va Qushchilik ko'chalariga shag'al yotqizildi.

O'zLiDeP Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi matbuot xizmati